



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI MÁMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASÍ  
B U Y R Í G'I**

**2023 jil. 11-Yanvar**

**№10**

**Nókis qalası.**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2022 yil  
06 yanvar kungi 1-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023 yil 6 yanvardagi 1-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrdagi « Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"ги PF-287-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Farmonga muvofiq:

respublika tuman va shaharlarini 5 ta toifaga ajratish Farmonning 1-ilovasiga muvofiq;

tuman va shahar toifasidan kelib chiqib, tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ularni qo'llab-quvvatlashning boshqa choralarini qo'llash tartibini joriy etish;

aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiya ajratishning oshirilgan miqdorlari Farmonning 2-ilovasiga muvofiq;

tadbirkorlik faoliyatini tuman va shaharlarning toifalaridan kelib chiqib, qo'llab-quvvatlash choralarini Farmonning 3-ilovasiga muvofiq:

davlat mulki hisoblangan yer uchastkalari va binolarini elektron savdolarga chiqarishda preferensiyalar berish maqsadida **lotning boshlang'ich zakalat miqdori** (amaldagi stavkaga nisbatan) **4 va 5-toifalardagi** (**4-toifa Amudaryo, Nukus tumani, 5-toifa Bo'zotov, Kegeyli, Qonliko'l, Mo'ynoq, Taxtako'pir, Sho'manay tumanlari**) **tuman va shaharlarda 50 foiz** etib;

davlat mulki obyektlarini ijara berishda auksionga chiqariladigan boshlang'ich narxni (amaldagi stavkaga nisbatan) **4 va 5-toifalardagi tuman va shaharlarda 50 foiz** etib **belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin**.

3. Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi (Qarlibaev) va Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari xususiyashtirish sho'basi (Asamatdinov) bilan birgalikda davlat mulki hisoblangan yer uchastkalari va binolarini elektron savdolarga chiqarishda preferensiyalar berish maqsadida **lotning boshlang'ich zakalat miqdori** (amaldagi stavkaga nisbatan) **4 va 5-toifalardagi tuman va shaharlarda 50 foiz** etib **belgilagan holda** savdolarga chiqarish choralarini ko'rsin.

4. Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov) davlat mulki obyektlarini ijaraga berishda **auksionga chiqariladigan boshlang'ich narxni** (amaldagi stavkaga nisbatan) **4 va 5-toifalardagi tuman va shaharlarda 50 foiz etib belgilagan holda auksionga chiqarish choralarini ko'rsin.**

5. Murojaatlar bilan ishslash bo'yicha bosh mutaxassis (Jiemuratova) mazkur buyruq nusxasini Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi (Qarlibaev), Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish sho'basi (Asamatdinov) va Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov)ga shaxsan yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat o'rnatishga hududiy boshqarma boshlig'inining birinchi o'rnbosarlari v.b. A.Sanetullaev mas'ul etib belgilansin.

**Boshqarma boshlig'i**



**M.Radjapov**